



**ETNOMADANIY KOMPETENSIYANI
SHAKLLANTIRISHDA MILLAT MADANIYATINI
O'RGANISH ZARURIYATI**

A.B.Isomiddinov

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolamizda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun talaba-yoshlarga har bir millatning madaniyatini o'rgatish orqali pedagogik faoliyatida ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash mumkinligi haqida shaxsiy fikrlarimizni bayon qildik. Maqolamizda har bir ilm istagidagi insonlar foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: an'analar, bilim, etnomadaniy kompetensiya, etnomadaniyat, ko'nikma, kompetensiya, malaka, milliy bag'rikenglik millat madaniyyati, milliy qadriyatlarga hurmat, talaba, tolerantlik.

Oliy ta'lif talabalarda etnomadaniy kompetentlikni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish natijasida milliy bag'rikenglik mustahkamlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida "Oliy ta'lifda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish"[2] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa, pedagogika va psixologiya ta'lif yo'nalishi talabalarida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishni taqozo etadi.

Respublikamizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi, talaba yoshlar orasida turli xalqlar madaniyatini o'rganish millatlaaro totuvlikni yanada mustahkamlaydi. Ularda etnomadaniyatni shakllanishiga zamin yaratadi. Talabalar turli xalqlarning turmush–tarzi, madaniyati va urf–odatlariga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish orqali kelajakda o'quvchilarda milliy g'urur va iftixorni shakllantirish malakasini egallaydi.

Nemis olimi D.Glovka o'zga millat madaniyatini o'rganish orqali millatlar o'rtasida o'zaro hurmatga erishish mumkinligi haqida ilmiy g'oyani ilgari surgan hamda multimadaniyat tushunchasi, maqsad va vazifasini asoslab bergan[3]. Mamlakatning ijtimoiy–siyosiy mavqeい bevosita millatlar o'zaro birdamlik bilan belgilanadi. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning tub mohiyati ham shundan iborat.

A.Tomas turli xalqlar madaniyatini o'ziga xos xususiyatlari va tolerantlik kabi muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan[5].

Oliy ta'lif muassassalarining asosiy vazifalaridan biri talabalarda ma'naviy fazilatni rivojlanirish va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashdan iborat. Ularda etnomadaniy kompetentlikni shakllantirishda ijtimoiy tajribalarga tayanish maqsadga muvofiq. Pedagogik va hayotiy vaziyatlarda talabalar dialogik muloqot orqali madaniyat elementlarini o'zlashtirish, kommunikativ madaniyatning yuqori darajasini egallahga yo'naltiriladi. Etnomadaniy kompetensianing muhim komponentlaridan biri tolerantlik hisoblanadi. Pedagogik muloqot jarayonida "o'qituvchi–talaba", "talaba–talaba" munosabatga kirishadi. Bu esa ta'lif oluvchilarda insoniy qadr–qimmat, mustaqil fikri, dunyoqarashini ifodalashga imkon yaratadi. Shuning uchun talaba–yoshlarda tolerantlik madaniyatini tarbiyalash talab etiladi. Fikrimizcha "etnomadaniy kompetentlik shaxsiy sifatlardan biri bo'lib, o'zi yoki qaysidir millat madaniyati haqidagi bilim, ko'nikma, malakalar, tasavvurlari, millatlararo o'zaro birlik va muloqotga ko'mak beruvchi xulq–atvor yig'indisidir".

Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda oliy ta'lif muassasasidagi ma'naviy muhit ham alohida o'rin egallaydi. Talabalar turli

toifadagi insonlar bilan o'zaro muloqotga kirishganda o'z millatiga xos hatti-harakatlarga amal qilishi, ijtimoiy maydonda turli millat vakillari bilan to'laqonli munosabat o'rnata olish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Talabalar etnomadaniyatni pedagogik-psixologik fenomen sifatida qabul qiladi, o'z xalqining an'anaviy madaniyatiga ega bo'ladi, xalq pedagogikasining tarbiyaviy, nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtiradi. Turli millat vakillarining psixologik xususiyatlarini anglagan xolda pedagogik faoliyatini tashkil qiladi.

Mavzuga daxldor manbaalar va adabiyotlarni tahlili natijasida etnomadaniy kompetensiya talaba shaxsining integral xususiyati deyish mumkin. Chunki, o'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimizning ijtimoiy-ma'naviy dunyosini o'rganib, ularning nazariy hamda amaliy tajribalarini hozirgi zamon talablari darajasida hayotga tadbiq etadi. O'z xalqi va boshqa millatlar madaniyati haqida bilim va tasavvurga ega bo'ladi, jahon madaniyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishadi, ularda bag'rikenglik sifatlari mustahkamlanadi.

Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan fanlar va tarbiyaviy jarayonlarda yuqorida sanab o'tilgan pedagogik shartlar amalga oshirilishi lozim. Natijada ta'lim mazmuni trayektoriyasi etnomadaniy vaziyatni yaratishga qaratiladi. Talabalarda milliy xususiyat, mustaqil fikrlash, shaxsiy qadriyat va jamiyat taraqqiyoti uchun hissa qo'shish malakalari shakllanadi.

Etnokompetensiya zamonaviy pedagoglarning muhim sifatlaridan biri sanalib, jamiyat ehtiyojlarini qondiradi, chunki barcha fuqarolarni o'zaro munosabatlari millatlararo totuvlikni ta'minlaydi. Har bir talaba qaysidir millat vakili bo'lib, individual-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga egaligi bilan farqlanadi.

Barcha millatlar maxsus hayotiy turmush tarzi bilan istiqomat qiladi va o'z xalqining ruhiyatiga moslashadi. Talabalar ijtimoiy munosabatlар, muloqot, odob-axloqi va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilan bir-biridan ajralib turadi. Bundan tashqari, oilaviy-nikoh munosabatlari, mehnat faoliyati, ta'lim, madaniyat, jamiyatdagi ijtimoiy faoliy va boshqalar xalqlarni etnik o'ziga xos jihatlarini namoyon qiladi.

Bugungi kunda ta'lif tizimining asosiy talabi zamonaviy pedagog-psixologlardan umumkasbiy kompetensiyaga ega bo'lishni taqozo etadi. Biroq, kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismini etnokompetensiya tashkil qiladi. Talabalarda etnoijtimoiy va etnopedagogik kompetensiya umumkasbiy kompetensiyaning tarkibi hisoblanadi.

U quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatning ijtimoiy muammolarini bilish, uni rivojlantirish mexanizmlarini tushunish;
- ijtimoiy faollik va etnopedagogik yo'nalishdagi loyihalarda qatnashish;
- ijtimoiy hayotdagi qoida, an'nalar va me'yorlarni qabul qilish hamda amal qilish;
- ko'p millatli jamiyatda tolerant munosabatda bo'lish, o'ziga va boshqalarga hurmatda bo'lish;
- etnopedagogik vazifalarni hal etishda ma'suliyatni zimmasiga olish;
- o'z millatining madaniy sifatlarini ifodalash.

Talabalarda etnomadaniy kompetensiya etnik xususiyat bo'yicha bilimlar majmui bo'lib, zamonaviy ta'lif muhitida pedagogik yetuklik va etnoijtimoiy mobilikka ega bo'lishdir.

Etnomadaniy kompetensiyaga ega bo'lgan insonlar, jahonni ko'plab o'qituvchilari, kasb-hunar o'rganuvchilari, liderlar va boshqa soha mutaxassislarda turli sohalar bo'yicha ishlayadilar. Bu kompetensiya, pedagog-psixologlarning global jamiyatda munosib qatnashishiga, aloqa qilishiga hamda bugungi kompleks dunyo bilan yaxshi munosabatlarga kirisha olishiga tom ma'noda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki bo'lajak pedagog-psixologlar har bir millat madaniyatini chuqur o'rganishi pedagogic faoliyatida nizoli vaziyatlarni oldini olish uchun muhim bir shart bo'lib sanaladi. Dunyo xalqlari madaniyatini har tomonlama o'rganish esa oliy ta'lif tizimini takomillashtirish jarayonida islohatlarni yetakchi omili sifatida talaba yoshlar bilim, ko'nikma va malakalarini kompleks tarizda sifat jihatidan takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2023 - yil 46-bet. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Mirziyayev Sh. M. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. 2019 -yil 8 - oktyabr. <https://lex.uz/docs/4545884>.
3. Гловка Д., Новиков Л. Сравнительная педагогика инструмент сотрудничества между Востоком и Западом//Советская педагогика, 1991. №6. С.126–134
4. A.B.Isomiddinov "Etnomadaniy kompetensiya orqali talabalarning pedagogik va milliy imidjini shakllantirish" CONFERENCE OF TURKEY "SCIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH IN THE MODERN WORLD" 2024. IN VOLUME #2 ISSUE #4 37-42 sahifalar.
5. Thomas A. "Psychologische Wirksamkeit von Kulturstandarts im interkulturellen Handeln // Kulturstandarts in der internationalen Begegnung"- Saarbrücken, 1991. P.55-69.
6. Umarov A.A. "Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli". Sotsiologiya fan. dok. ... dicc. – T., 2005. – 274 b.
7. www.lex.uz
8. www.Ziyo.net
9. www.Arxiv.uz
10. www.Ilm.uz